



**SHAYBONIYXONNING HARBIY YURISHLARI VA
ISLOHOTLARI.**

Muhammadiev Bilol Ismoil o'g'li

Namangan davlat universiteti

Tarix yo'nalishi 2- bosqich talabasi

E-mail: bilolmuhammadiyev5@gmail.com

Tel: +99895 7707796

Annostatsiya: *Ushbu maqolada Shayboniixononni davlat tuzishi, temuriylar davlatini bosib olishi, Bobur Mirzo bilan bo'lgan kurashlar, shuningdek Shayboniixon tomonidan o'tkazilgan pul, harbiy islohotlar. Ismoil Safaviy bilan kurashlari va o'limi yoritiladi.*


Kalit so'zlar: *Shayboniixon, Sulton Ali Mirzo, Zaxriddin Muhammad Bobur, Jonivafo, Marv janggi, Ismoil Safaviy, G'ijdivon janggi.*

O'zbek tarixida Temuriylar saltanati parchalangandan song O'rta Osiyo hududa Chingizxonning avlodlari davlat tuzdilar. Dastlab butun Movorounahir Xorazim va Xurosonni bir qismida shayboniylar davlati bo'lib 1510-yildagi Eron safaviylari bilan bo'lgan janglardan so'ng Shayboniixon o'lim topdi va Xorazim hududlari va Xurosonni katta qismi safaviylar davlati tasavvuriga kirgan. Movarounhir poytaxti Samarqand shaxri bolgan Ko'chukunchi xon boshchiligidagi Shayboniixonning amakilari qo'lga qoldi.

Ularni say harakatlari bilan hokimiyat mustahkamlanib borib, Ubaydullaxon davrida xonlarga aylandi. Poytaxt Buxoro bo'lgach davlat nomi Buxoro xonligi nomini olidi. Bu sulola 1601- yilga qadar mamlakatni idira etdi.

Temuriylar davlatining so'ngi hukumdorlari o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklardan foydalangan va bu yerdagi siyosiy vaziyatlarni yaxshi bilganligi Shayboniixon qo'l keldi. Shayboni Shoh Budog' Sulton ibn Abulxayrixon o'g'li hijriy 855-yili tug'ulgan. Onasi Oq Qo'zibegim. Shoh Budog' Sulton vafod etgach Abulxayrixon nabirasiga otabeklik qilish mansabini ilgari Budog' Sultonning ham atkasi bo'lgan Uyg'urboy Shayxga topshirdi. Shayboniixon ukasi Maxmud Sulton bilan birgalikda Movrounahir shaharlarida ilm olib ulg'aydilar. XV asirni 80 yillarida Dashti Qipchoqa qaytib bobosi Abulxayrixon davlatini tiklash orzusi paydo bo'ldi. Shayboniixon Sirdaryo bo'yi shaharlarini egalagandan so'ng temuriylar davlati tomon yurushlarga yo'l ochildi. Sulton Maxmud Mirzo o'g'lilari o'rtasidagi qarama -qarshilik hamda Samarqand va Buxorodagi parishonligi xabari Shayboniixonni qulog'iga yetgach hijriy 905 -yilda Movorounahir shaharlarini egalash taradudiga tushdi. Temuriy Sulton Ali Mirzo dala-dashtda urushga kuchi etmagach shaxarga qamalib qalani burjini mustahkamlashga kirishdi.

Shayboniixon Samarqanda bir necha janglar olib borgach Buxoro hokimi Muhammad Boqi Tarxon o'n ming otliq va piyoda qoshin bilan Sulton Ali Mirzoga yordam berish uchun yo'l oldi. Dabusi qalasi yaqinida qattiq urush bo'li, bu urushda Shayboniixon





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

g'alaba qozondi. Shayboniyxon Buxoro tomon yuzlanib Buxoroni qamalga oldi. Buxoroliklar uch kungacha bardosh berib to'rtinchi kuni Mavlono Muhammad Ali Xorazmiyning sovg'a salomlar bilan omonlik tilab Shayboniyxon huzirga yuborilar. Shayboniyxon ularni kechirib Buxoro xalqidan o'ch olish qasdidan qaytdi.

Ammo Buxoro xalqi Muhammad Boqi Tarxonga yo'lagan maktublari haqidagi xabar shayboniyxondi Buxoroni talash qarorini berishga turtki berdi va o'zbeklar qo'shini ko'plab buxoroliklarni talon taroj qildi. Buxoro hokimligini Shayboniyxon ukasi Maxmud Sultonga topshrdi. Buxorodan Samarqanga qaytgan Shayboniyxon shaharni jang bilan ololmagach hiyla-nayrang qila boshladi. Bu borada Sulton Ali Mirzoni validasi Zuxrabegi Og'o aqli kamligi va qayta er qilishga ishtiyoqi baland bo'lgani sabab yashirincha Shayboniyxonga chopar yuborib maktub yo'ladi mktub mazmuni, agar xotin qilib olsa xizmat kamarini uni beliga taqishi va Samarqand darvozasini ochib berishi shu bilan birga boshqa shaxarlarni egallab olsa Samarqandini Sulton Aliga berish shartini ham qo'ydi.


Bu Shayboniyxonga yoqib darxol o'z maktubini yo'ladi. Zuxrabegi Og'o o'gli Ali Mirzoni Shayboniyxonga bo'lgan dushmanlik kayfiyatini so'ndirishga kirishdi. Ali Mirzo Shayboniy bilan uchrashishga qaror qildi. Shayboniyxon Jaloliddin Xovand Buxoriyning Samarqandga yubordi. Ali Sulton Shayboniyxonning huziriga olib borish va Shayboniyxon uninga izzat ikrom ko'rsatishga ishontirdi. Sulton Ali siyodatpanoh ketgandan so'ng ikki -uch kun o'tgach Samarqand ulug'lari jome masjidida juma namozini o'qishga tayorgarlik ko'riladigan bir paytda Sulton Ali Chohorroha darvozasidan chiqib Shayboniyxon huzuriga yuzlandi. Xon unga mexribonlik qilib bag'riga bosadi va uning Muhammad Temur Sulton yonida manziltopib unga tobe bo'lish va kelishuvdan chetga chiqmaslik borasida buyruq beri.

Shayboniyxon kengash o'tkazib Samarqandga nayman urugidan bo'lmish Jonvafoni dorug'alik lavozimiga tayinladi. Muhammad Shayboniyxon Samarqandga taxtga o'tirgach Movarounahir ulug'lari xonlik taxti ostida yig'ildilar. Endi xon etiborini qaerda isyon chiqsa bostirishga yoki Amudaryodan Xuroson tomonga o'tishga qarati, mmo ko'p o'tmay axd buzuldi Muhammad Shayboniy xon bir kechada Sulton Ali Mirzoni o'ldirdi. Samarqandagi bu voqialar temuriy shaxzoda Boburdi chuqur istirobga qo'ydi. Bobur Samarqand tomonga otlandi. Bu paytda Shayboniyxon sakizming otliq va piyoda askar bilan Diydor qalasida turgani, Samarqanda esa Jonvafo olti yuz o'zbek qo'shini bilan istiqomt qilib turishiga qaramay Bobu ikki yuz qirq nafar askar bilan fath etishga qror qildi va niyatiga etdi

[2.-B. 135-145]

Bobur Samarqandni egalagan vaqt o'n to'qiz yoshda edi. Shu yerda birinchi farzandi dunyoga keldi, birinchi ayoli Sulton Ahmadni qizi Oysha Sultonbegimdan qiz farzandli bo'ldi uning ismi Faxrunso edi ammo bir oyi qirq kunlikda vafod etgan.

Bir necha urushlardan so'ng sulh tuzuldi Bobur Shayxzoda darvozasidan chiqdi u bilan birga onasi va Bichka Xalifa, Minglik ko'kaldosh birga chiqadi Boburdi egachisi





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

Xonzoda begim Shayboniyxonga asir tushadi. Bobur samarqandan ketadi.[3.- B.75-76] Shunan so'ng Shayboniyxon 1503-yilning baxorida Toshkentga yurish qildi.Toshkent viloyatidagi Shoxruxiya va boshqa ko'pgina qalalarni bosib olishga erishdi. Farg'onadagi Arxian qalasi yonida bo'lgan jangda Toshkent hokimi Maxmudxon halok bo'ldi.Toshkentga qolgan Maxmudxondi o'g'li Muhammad Sulton Shayboniyxon qo'shini yaqinlashi bilan shahardan qochib ketdi.

Toshkentga mustahkam o'rinishib olgan Shayboniyxon ukasi Maxmud Sulton boshchiligida katta qo'shinni Xorzmga yubordi. Xorazmdagi Kat va Buldumsoz qalalarini eglagandan so'ng bu yerdgi axolini majburan Buxoroga ko'chirishga buyruq berdi Maxmud Sulton. 1505-yili o'n oylik qamaldan so'ng ko'chmanchi o'zbeklar Urganch shaxrini egladilar. Shayboniyxondi o'zi katta qo'shin bilan 1504-yili Hisor viloyatiga yurish qildi. Bu paytda Hisor hokimi Xusravsho ancha katta qo'shinga ega bo'lsada Shayboniyxonga qarshi jiddiy qarshilik ko'rsata olmadi. Buning natijasida Hisor viloyati barcha tog'li hududlri biln birga Shayboniyxon ixtiyoriga o'tdi. Keyinga harbiy yurishlar davomida Qunduz, Tolqon, Badaxshon va Balx shaxarlari egalandi. Shaybonixondi markazlashgan davlat tuzish yo'lidagi dushmnlnridan biri Dashti Qipchoqdagi qozoq Sultonlaari edi. Shayboniyxondi Xuroson hududlariga qilgan yurishlaridan foydlangan qozoqlar Movorounahir shaharlarig xususan Samarqand, Buxoro shaxarlariga talonchilik yurishlari uyushtirib xalqni talab axolini asr olib ketishadi. Shayboniyxon 1509- yilda qozoq sultonlari Jonish Sulton, Burunduqxon, Qosim Sultonlarga qarshi zarbalar berdi, hamda Sig'noq, Yassi va Savron shaharlarini egallab Turkutondagi Ahmad Yassaviy maqbarasini tminlshga buyruq beradi.

1509- yilda Shayboniyxon marv shaxrini egalshga muvaffaq bo'ldi. Bundan so'ng Shayboniyxon Eronga qarashli Tus va Mashhad shaxarlariga yurish qilib u yerlarni muqaddas joylarini ziyorat qildi.[1.-B 252-253.]

1506-yilda vafod etgan temuriy hukumdor Sulton Husain Boyqorodan keyin taxt tuchun uning o'g'ilari ortasidagi kurash usiz ham tugab borayaotgan davlatni zavolini tezlatdi bir yil otib 1507- yilda Shayboniyxon Hirot shaxrini egallab temuriylr davlatiga xotima berdi.

Ko'p yillik yurushlar natijasida Shayboniyxon qo'l ostida Dashti Qipchoq, Movorounahir, Xorazm va Xuroson hududlarini birlashtirdi va yirik davlat tuzdi. Erondagi bazi hududlarni egalashi safaviylar bilan urushga baxona bo'ldi.Bir qancha urushlardan so'ng Shayboniyxon va Ismoil Sfaviy o'rtasida hal qiluvchi jangida yengilgan Shayboniyxon o'ta sarosima va istirob ichida qochish maxali Siyahob yonida uzangisi xizmatida bo'lgan besh yuz nafar askar bilan otini bir chaxorbog' ichiga qarata haydagan edi, ammo bog' ichidan tashqariga chiqishga joy topa olmay qoldi, o'sha asnoda Burun Sulton g'oziylardan bir gurihi bilan ul bog'ni orab olib bog' ichiga qarata o'q uza boshlashdi. O'zbeklar o'q yomg'iri ostida bir-biri ustiga qulab, juda ko'plab otlar tiyog'i ostiga halok bo'ldilar. Hayotlaridan bir necha nafaasi qolgan ayrimlari esa o'lgan sheriklari ustiga tarmashib, bog' devori ustiga chiqib olar, ammo ular ham go'ziylarni





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

o'tkir qilichi zarbidan halok bo'lishardi. Shayboniyxon ustiga qulab tushgan qochoqlar ostiga qolib, nafasi qisilib jonini ruhlarni oluvchiga topshirgan edi. Eron askarlari Shayboniyxondagi boshini tanasidan olib Ismoil safaviy oldiga olib borishadi. Shaybniylarga tegishli ko'plab o'ljalar qurol-yaroqlar boyliklarini taqsimlab olishdi. Zaxridin Muhammad Bobur bundan foydalanib Ismoil bilan itfoq tuzib Movorounahirni Badaxshon, Hisoni Shodmon va boshqa hududlarini olib Samarqandga yurish qildi. Buni eshitgan Muhammad Temur (Samarqand hokimi edi), va Buxoro voliysi Ubaydullo Sultonlar Turkustonga ketdilar. Bobur Samarqandni yana bir bor egalagan bo'lsada bu gal ham uzoq taxtga qola olmdi. Chunki safaviy bilan orasi yomonlashdi, bundan xabar topgan shayboniy shahzodalar katta qo'shin bilan Buxoro voxasiga yurish qildilar. Bobur ozchilik qo'shin bilan mardonovor kurashdi hato o'zbek sarkardalaridan O'ris biy, Xoja Ahmad qo'ng'iroq, Ko'chak biy kabilarni asirg oldi va o'ldirdi, lekin bu jngda o'zbek qo'shini g'alaba qildi. Bobur dastlab Samarqandga keyin esa Hisoni Shodmon sari ketdi. Hijriy 918- yil muborak ramazon oyining uchunchi kunida seshanba kuni Eron g'oziylari va Bobur Mirzoga qarshi shayboniylar G'ijdivonda qattiq jang qildilar bu jangda Bobur va uning itfoqchilari mag'lub bo'lishdi.[2.-B.276-283.] Shayboniylar Movorounahirdi egaladilar to 1601-yilga qadar sulola davom etdi. Ubaydullo sulton davriga kelib 1633-1639- yillard shayboniylarni o'rta osiyodagi davlati Buxoro xonligi nomini oldi. Shayboniy xonlar va sultonlar o'z rejsini amalga oshirishda Dashti qipchoq axolisidan lozim bo'lganda tezda to'planadigan juda ko'p askar va qo'shinga tayanar edi. Qo'shin to'plash, ular taminoti, kerakli qurol -yaroq miqdori, saflash hamda harbiy harakatlarni olib borish o'sha davirda Oltin O'rda va Oq O'rda amalda bo'lgan Chingizxon Yasosi hamda turkiy xalqlar odat va udumlari asosida tartibga solingan, Qo'shin bo'linishi asosan o'nlik tizimda bo'lib temuriylardikiga ancha o'xshash bo'lgan. Qo'shindagi lavozimlar; shayboniylar qo'shining oliy bosh qo'mondoni xon, qo'shining alohida qismlriga jumladan o'ng qanot, so'l qanot, qalb, qorovul (oldingi qo'riqchi bo'linmaga) xoni o'g'li, qarindoshlari yoki janglarda sinalgan sarkardalar boshliq qilib tayinlangan. Xondagi alohida topshiriqlarining bajaruvchi ishonchli kichik ofitseri -Yasovul, keyinchalik Abdullaxon II davrida Mubashir (arabcha) deb atalgan. Qurchi xondagi shaxsi va saroyini qo'rig'lovchi, Tug'begi – xon bayrog'ini ko'tarib yuruvchi yalovbardor, to'pchiboshi (Miran Baxodir) va boshqa ko'plab lavozimlar bo'lgan. Bular ichida Tanmachi (temuriylarda tavochi) qo'shin yig'uvchi mansabi ham alohida o'rin tutgan. Xonlar janglarda shaxsan o'zi boshchilik qilgan, tanglik holatda oddiy askar kabi urushga kiravergan. Msalan, Shayboniyxon agar Husain Boyqoroning Xorazimdagi noibiga qarshi qo'shining ilg'origa (avangard) boshchilik qilgan bo'lsa, 1500-yillrda Samarqand janglarida “Shayboniyxon o'linga tik boqib shaxsan o'zi urishgn” Shuning uchun ham tarixchilar uning askarboshchilik va jangchilik qobiliyatiga yuksak baho berganlar. “O'zbek fotixining qanoati va kamtarligiga, sabru qahramonlik darajasi juda taajjubli bo'lgan. Qo'shinga o't ochar qurolni joriy etilishi asosan usmoniylar bilan bog'liq. Chunki bu paytda usmoniylik Eronga qarshi siyosatida O'rta





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Osiyo xonlaridan foydalanmoqchi bo'ladi va shu asnoda kurashayotgan Abdullaxon II va Navr'o'z Axmadxondi o'g'illarini qo'llash uchun turk askarlari bilan kirib kelgan. Abdullaxon II armiyasida tosh, o't- olov olov otuvchi to'plar, zambarak va to'fanglar (miltq) ham bo'lgan. Xurosondagi Gazo qal'asini egalashda shundy qurollardan foydalanilgan.


Ammo yaxlitligicha olinsa, shayboniylar davlatining armiyasi xarbiy texnika va tarkibi jihatdan bu vaqda Yevropa armiyasidagina emas, yaqin qo'shnilari – Turkiya, Eron va Hindistonnikidan ham orqda qola boshlagan ediki, bu keying davirlarda yaqol ma'lum bo'ldi.[o'zb shay]

Qo'shin asosan otliq va piyoda askarlardan tashkil topgan. Harbiy harakatlar davomida qo'shin o'q-yoy, uzun nayza, qilich, gurzi, uzun dastali jang boltasi (tabarzin), changak kabi asosiy hujum qurolaridan foydalanilgan. Askarlarni himoyalashda qalqon(sipar), hamda temir simdan mayda qilib to'qilib, usti ipak va baxmal mato bilan yopilgan sovut (jovshan) yoki jiba (jeva) – temir yoki po'latdan ishlangan maxsus kiyimlardan, bosh qismida esa dubulg'alar kiyishar edi.[4.-B,88-89]

Muhammad Shayboniyxon 1507- yilda Hirotga kelgach, bu yerdagi jome masjidta kengash chaqirib, pul islohoti haqida farmon e'lon qiladi. Bu paytda Hirotta pul muomilasi chuqur inqirozga uchragan bo'lib, ushbu islohot Xurosondagi savdogar zodogonlarni Shayboniyxon o'z tomoniga og'dirish lozim edi. Yangi kumush tangalarning vazni 5.2gram bo'lib (ilgari temuriylarni tangalari 4.8gram bo'lgan) unga Shayboniyxonning nomi va unvoni bitilgan. 1507- yilda bu islohot xali oxiriga etmagan edi. Bu paytda Movorounahirda temuriylar tangasi to'la muomilada bo'lgan. 1508- yilda bu islohot yakuniga etib Shayboniylar davlatining barcha hududlarida – Samarqand va Buxoroda, Marv, Kesh, Nasaf, Hirot, Mashhad, Nushopur, Sabzavorda bir xil vazindagi, bir xil sayqalangan tangalar zarb etilib muomilaga kiritildi. Bir xil kumush va mis tangalar butun mamlakat bo'ylab muomilaga chiqarilib, pulning qadirlanishiga barxam berildi.[1.-B.263- 264]

Xulosa qilib aytish mumkinki shayboniyxon va shayboniylar davlati o'zbek davlatchiligiada katta o'rin va mavqeyga ega. XV asr oxirida temuri shaxzodalar o'rtasida bo'lib otgan taxt uchun kurashlar, axolini turli toifasi uchu qiyind bo'lgan, ko'plab oddiy axolinig ezilishi natijasida ular ham tinch hayotni istashar edi. Shuning natijasida Shayboniyxon bosqinchilik yurishlari Movorounahir huudlarida og'ir kechmagan. Hokimyatdagilarni irodasizligi va kaltabinligi sabab Samarqand taxti qo'sh qo'lab Shayboniyga berildi. Shoh Bobur bir necha bor Samarqndi egalagan bo'lsada lekin harbiy kuch, mahorat va tajriba ustunligi Shayboniyxonga baribir g'alaba keltirdi.

Shayboniyxon katta harbiy yurishlar natijasida katta hududlarni bir markaz ostida birlashtirdi. Mamlakat hududi Dashti Qipchoq, Movorounahir, Xorazm, Xurosondi katta qismni qamrab olingan. Shayboniyxondi o'zi bu davlatni uzoq boshqarmagan bo'lsada shu hududlar uchun muhim islohotlar amalga oshirdi. Jumladan mamlakat dehqonchiligi uchun muhim bo'lgan sug'orish tizmi uchun, pul muomilalari sohasidagi islohotlatri





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

muhim axamyatga ega. Shayboniylarni deyarli hamma sultonlari memorchilik sohasida ko'plab imoratlar qurdirgan madrasa, masjid, tim karvon saroylar, sardoba-yu to'g'onlar qurilgan. Bu obodonchilik ishlari bir joy uchun emas balki mamlakatni hammam hududlarida qizg'in amalga oshirganlar.

Shayboniyyxon va shayboniy hukumdorlar o'z zamonasi uchun bilimli va oqil bo'lishib, ilm fanga ham yuksak etibor berishgan turli shaxarlarda kutubxonalar tashkil etib, o'zlari ham mohir shariyatnavis bo'lishgan. Xususan Shayboniyyxon o'z she'rlarida Buxoroni Ka'ba, Samarqandni esa janatga qiyoslab yozgani ko'pchilika ma'lum. Bu davirda tarixnavislik, adabiyot, tibiotga oid juda ko'p asarlar yozilgan.

Temuriylar davri kabi ilm -fan rivoj topmagan bo'lsada, ammo oz bo'lsada rivojlanishda davom etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Баходр Эшов, Узбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи – Тошкент узбекистон тарихи кафедраси. 2012. 456.
2. Гийосиддин бин Хумомиддин Хондамир. Хабиб ус- сийар фи ахбори афроди башар-Тошкент “ SHARQ” нашрийот-матбаа алциядорлик компанияси бош тахрироти. 2011. 304 б.
3. Захриддин Мухаммад Бобур. Бобурнома- Тошкент “ O'qutuvchi” нашрийот-матбаа ижодий уйи. 2008. 288 б.
4. Зийодулла Мукимов . Шайбонийлар давлати ва ҳукуки – Тошкент “Adolat” 2007. 154 б.

